

Ee HARFINING O‘ZBEK KIRILL VA LOTIN ALIFBOLARIDA QO‘LLANISHI: MUAMMO VA YECHIMLAR

Sodiqova Muqaddam

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat
instituti katta o‘qituvchisi.

Annotatsiya: Ee harfi o‘zbek kirill alifbosida [э] tovushi hamda [й+э] tovushlar birikmasini ifodalaydi. O‘zbek lotin alifbosida esa faqat [э] fonemasi o‘rnida ishlatiladi. Bu esa mazkur harf ishtirok etadigan so‘zlarni o‘zbek lotin alifbosiga transliteratsiya qilishda bir qator murakkabliklar keltirib chiqaradi. Shu sababli ham Ee harfli so‘zlarni lotinchaga o‘girishda ilmiy-nazariy yondashuv, qiyosiy tahlil va amaliy tajriba zarur bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: o‘zbek kirill alifbosi, o‘zbek lotin alifbosi, o‘zlashtirilgan so‘zlar, orfografik qoidalar, qiyosiy tahlil, imlo lug‘atlari.

Annotation: In the Uzbek Cyrillic alphabet, the letter *Ee* represents the combination of the sound [э] ([e]) and [й+э] ([y+e]). In the Uzbek Latin alphabet, it is used only in place of the phoneme [э] ([e]). This causes a number of complications in the transliteration of words with this letter into the Uzbek Latin alphabet. For this reason, a scientific-theoretical approach, comparative analysis and practical experience are necessary to translate words with the letter *Ee* into Latin.

Keywords: Uzbek Cyrillic alphabet, Uzbek Latin alphabet, acquired words, orthographic rules, comparative analysis, spelling dictionaries.

Аннотация: Буква ээ представляет собой сочетание звука [e] и [y+e] в узбекской кириллице. В узбекской латинице он используется только вместо фонемы [э]. Это вызывает ряд сложностей при transliterации слов с этой буквой в узбекскую латиницу. По этой причине для перевода слов с буквой Ээ на латынь необходим научно-теоретический подход, сопоставительный анализ и практический опыт.

Ключевые слова: узбекская кириллица, узбекская латиница, приобретенные слова, орфографические правила, сравнительный анализ, орфографические словари.

Kirish

Ma’lumki, 1940 yildan boshlab O‘zbekistonda kirill alifbosi qo‘llana boshlagan. Mazkur alifbo o‘z davrida ijtimoiy hayotimizda, jumladan, ilm-fan taraqqiyotida muhim rol o‘ynadi. Biroq tan olish kerakki, “yolashgan unlilar”ning qo‘llanishi natijasida so‘zning o‘zagi va qo‘shimchalarini belgilashda, bo‘g‘inlarga ajratida qiyinchiliklar yuzaga keladi, yozuv amaliyotida murakkabliklar paydo bo‘ladi. Ayni shu holat esa o‘zbek lotin alifbosida o‘z yechimini topgan deyish mumkin. Chunki rus tili orqali o‘zlashtirilgan so‘zlar ham lotincha alifboda o‘zbeklar nutqiga xos jonli talaffuzda, asosan, fonetik prinsip asosida yoziladi. Lekin rusacha va Yevropa tillaridan o‘zlashtirilgan barcha so‘zlar xususida bunday qat’iy fikrni aytish qiyin. Chunki kirilcha alifbomizda e, ё, ю, я harflari bilan yoziladigan leksemalarni lotincha alifbomizga o‘girish – transliteratsiya qilishda shunday bir nozik nuqtalar borki, avvalo, ularni ilg‘ab olish, har biriga alohida yondashishga to‘g‘ri keladi. Binobarin, “Tilning taraqqiyotiga muvofiq tarzda talaffuz o‘zgarib boradi, yozuvlar esa – o‘z tabiatiga ko‘ra tovushlarga nisbatan

o‘zgarimas bo‘lib - avvalgi holatida qolishi mumkin. Nutqning og‘zaki va yozma shakllari orasida paydo bo‘lgan uzilish (ijtimoiy anglangan holda) yo yo‘qotiladi yoxud mustahkamlanadi, buning ustiga bunday holatda tovush va harf orasidagi munosabatda boshqa qonuniyatlar yuzaga keladi: ular qonun darajasiga ko‘tariladi. Ma‘lum bir xalqda qabul qilingan to‘g‘ri yozuv qoidalari ana shu tarzda belgilanadi.” [1, 81]

Yuqorida keltirilgan nazariy fikrlar asosida kirilcha alifbomizda e, ё, ю, я harflari bilan yoziladigan so‘zlarni o‘zbek lotin alifbosida berilishi masala sini konkret ko‘rib chiqamiz. Avvalo, Ee harfli so‘zlarning transliteratsiyasi haqida to‘xtalamiz. 1995 yilda tasdiqlangan “O‘zbek tilining asosiy qoidalari”da ko‘rsatib o‘tilganidek, “Ee harfi *ekin, esla, evara, ekran, eksport; kel, zehn; kecha, behi; telefon, teatr; poyezd, atele; e‘lon, ne‘mat, she‘r* kabi so‘zlarda old qator o‘rtakeng unlini ifodalash uchun yoziladi.” [2, 107]. 1956 yilgi imlo qoidalarida esa Ee harfining qo‘llanish o‘rni quyidagicha edi: “8. Ee harfi: 1) *ep, em, etmish, elka, объект, разъезд* kabi so‘zlarda, so‘z yoki bo‘g‘in boshida, *етим, елим* kabi so‘zlarda ayrim bo‘g‘inni tashkil etganda, shuningdek, *правление, страхование* kabi so‘zlarning oxirida, unli tovushdan keyin *йэ* (й+э) o‘rnida yoziladi; 2) *кел, кет, кеч, бел, тер, беда, меймон, мейнат, чехра, зехн, мейр, истеком, телефон, театр, сеанс, адрес, телеграф, температура, делегат* kabi so‘zlarda, undoshdan so‘ng yoki ikki undosh orasida, э tarzida aytiladigan unli tovush o‘rnida yoziladi.” [3, 7]

Keltirilgan qoidadan ma‘lum bo‘ladiki, Ee harfi o‘zbek kirill alifbosida [э] tovushi hamda [й+э] tovushlar birikmasini ifodalaydi. O‘zbek lotin alifbosida esa faqat [э] fonemasi o‘rnida ishlatiladi. Endi buni misollar yordamida ko‘rib chiqamiz: Европа, Егор, Елена, епископ kabi so‘zlarda e harfi [йэ] tarzida aytilib, alohida bo‘g‘inni tashkil etadi. Mazkur leksemalarni transliteratsiyada quyidagicha ko‘rsatish mumkin: [йевропа], [йегор], [йелена], [йепископ]. Demak, bunday tipdagi so‘zlar lotinchaga: Yevropa, Yegor, Yelena, yepiskop shaklida o‘giriladi.

Ma‘lumki, Ee harfi rus tilida familiya yasashda ham ishtirok etadi: *Горбачев, Сичев, Лигачев, Хрущев, Радищев* va sh.k. familiyalarni kirilcha alifboda aks ettirishda orfografik muammo yo‘q, chunki rus tilidagi shakllar bilan bir xil. Orfoepik nuqtayi nazardan ham deyarli o‘xshash holat: rus tilida qanday talaffuz etilsa, o‘sha tarzda o‘zbek tilida ham aytiladi: [горбачов(ф)], [сичов(ф)]. [лигачов(ф)]. [хрущов(ф)], [радищев(ф)]. E’tibor berilsa, Радищев dan boshqasida [ов(ф)] eshitiladi. Shunday ekan, mazkur leksemalarni o‘zbek lotin alifbosida berishda alohida yondashuv talab qilinadi, binobarin, ularni *Gorbachev, Sichev, Ligachev, Xrushchev* tarzida yozib bo‘lmaydi. Negaki, yuqorida ko‘rsatib o‘tilganidek, Ee harfi lotincha yozuvimizda old qator o‘rtakeng unli [e] ni ifodalaydi. Agar *Горбачев* lotinchaga *Gorbachev* shaklida o‘giriladigan bo‘lsa, [горбачэв] tarzidagi talaffuz yuzaga keladi. Demak, bunday tipdagi so‘zlar o‘zbeklar nutqiga mos tarzda: *Gorbachov* shaklida yozilishi lozim bo‘ladi. Сичев - Sichov, Лигачев - Ligachov, Хрущев – Xrushchov shaklidagi yozilishlar ham orfografik jihatdan o‘zini to‘liq oqlaydi. Negaki, “Xorijiy so‘z oluvchi til qonuniyatlariga moslashtirib (yoki aslan tovush tarkibi uyg‘un) olingan bo‘lsa, “o‘zlashtirma so‘z” terminini qo‘llash hodisa mohiyatiga mos keladi, chunki xorijiy so‘z bunday holatda o‘zlashtirilgan, ya’ni oluvchi tilning o‘ziniki qilib olingan bo‘ladi. Muayyan xorijiy so‘z xuddi shu ikkinchi holatdagiday o‘zlashtirilsa, tilning yaxlit milliy tabiati zaxa yemaydi, til lug‘at boyligining umumiy milliy tusiga katta ta’sir bo‘lmaydi, tilning milliy tarovati sog‘lom saqlanadi.” [4, 13]

O‘zlashtirilgan so‘zlar orasida ruscha ism-familiyalar salmoqli o‘rin egallaydi. Garchi ularning aksariyati lotincha yozuvimizda qiyinchilik tug‘dirmasa-da, ba’zilar orfografik jihatdan murakkabligi bilan ajralib turadi. Masalan, *Федотов* tipidagi familiyalarni transliteratsiya qilish

murakkab emas: *Fedotov* shaklidagi yozuvni kompyuter dasturlari orqali ham olish mumkin. Aynan mana shu shaklga yaqin *Федоров* familiyasini lotinchaga o'girish esa o'zgacha bir yondashuvni taqozo qiladi. Chunki kompyuter yordamida o'girilsa, *Fedorov* shaklidagi yozuv va [Федоров] tarzidagi talaffuz yuzaga keladi. Bu esa o'zbek adabiy tilining orfoepik va orfografik meyorlariga umuman mos kelmaydi. Xo'sh, u holda qanday yo'l tanlash kerak?

Ayni shunday holatlar boshqa tillar amaliyotida ham ko'p uchraydi. Jumladan, rus tilshunosi Y.I.Shubovning yozishicha, "Turdosh otlar bilan qiyoslaganda atoqli otlarni transkripsiya qilishda ayrim "ijozatlar"ga yo'l qo'yilsa-da, baribir manba tilning fonemalar tizimiga emas, balki rus tilining grafika va orfografiyasiga tayanish lozim." [5, 41]. Demak, biz ham bunday holatlarda o'zbek lotin alifbosining grafik imkoniyatlariga, orfografik meyorlariga tayanishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi. Shundan kelib chiqqan holda *Федоров* [фйодоров] tipidagi so'zlarni o'zbek lotin alifbosi imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda *Fyodorov* shaklida yozish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki bunday orfografik yondashuv orqali hozirga qadar eri shi lgan talaffuz: [фйодорив(ф)] saqlab qolinadi, harf va tovush orasidagi nisbiy mutanosiblik – fonografik simmetriya yuzaga keladi.

Ko'rinadiki, o'zbek kirill alifbosidagi Ee harfli so'zlarni lotincha yozuvda aks ettirishda bir qator nozik xususiyatlarga e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Binobarin, Yeye harfli so'zlar, xususan, ruscha ism-familiyalarning 4 xil shaklda berilishini esda tutish kerak: 1) ye: Yegor (Егор), Yelena (Елена); 2) e: Radishchev (Радищев); 3) o: Gorbachov (Горбачев); 4) yo: Fyodorov (Федоров). Keltirilgan misollar o'zbek lotin alifbosida yangi bir orfografik qoida shakllanayotganidan darak beradi. Darhaqiqat, "Til taraqqiyoti orfografiya oldiga ma'lum talablarni qo'yadi. Til taraqqiyosi bilan birgalikda til grammatik qurilishining mukammallashishi va lug'at sostavining boyishi bilan bog'liq holda orfografiya murakkablashadi, ma'lum umumlashtirish va normalashtirishni talab qiladigan yangi qonuniyatlar vujudga keladi. Biroq har qanday orfografik qoida tilning ichki taraqqiyot qonunlarina mos holda til faktlarini qonuniy ravishda umumlashtirib bergandagina o'z qimmatiga ega bo'ladi." [6, 5]

Xulosa

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni ta'kidlash lozimki, Yeye harfli so'zlar imlosi o'ziga xos bo'lib, har ikki alifboni qiyosiy tahlil qilgan holda Yeye harfli lekskemalarga alohida yondashuvni taqozo etadi. Buning uchun mazkur harf bilan yoziladigan so'zlarni maxsus tahlil qilish, transliteratsiya jarayonidagi nozik qirralarni hisobga olish zarur. Har bir orfogramma puxta o'rganib chiqilishi, amaliyotchi o'qituvchilar bilan kelishgan holda imlo lug'atlarida tavsiya etilishi maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar:

1. Иванова В.П. Современная русская орфография. – М.: Высшая школа, 1991.
2. Jumaхo'ja N., Jomonov R. Yangi o'zbek alifbosi va imlo qoidalari. –T.: 2003.
3. O'zbek orfografiyasining asosiy qoidalari.. –T.: O'zbekiston FA nashriyoti, 1956.
4. Mahmudov N. So'z o'zlashtirishda meyor va milliylik // Xorijiy so'z va terminologiyadan foydalanishda meyor va milliy-assotsiativ fikrlash muammolari. –T.: 2011.
5. Шубов Y.I. Употребление букв э, е после согласных словах // О современной русской орфографии. –М.: Наука, 1964.
6. Borovkov A.K. O'zbek orfografiyasi masalalariga doir // O'zbek orfografiyasi va terminologiyasiga doir masalalar. –T.: O'zbekiston FA nashriyoti, 1952.

7. Sadullaeva N., Sapaeva D. Analysis of Eponyms in the Terminology of Dermatovenerology //Annals of the Romanian Society for Cell Biology. – 2021. – C. 452-459.
8. Sadullaeva, N., & Bakhtiyorova, M. (2021). Reflection of Onomastic Principles in Naming. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 3001-3007.
9. Sadullaeva N., Burieva U. The Peculiarities of Incomplete Sentences in Modern English //Annals of the Romanian Society for Cell Biology. – 2021. – C. 3008-3020.
10. Sadullaeva S., Arustamyan Y., Sadullaeva N. Shifting the assessment paradigm from knowledge to skills: Implementation of new appraisal procedures in EFL classes in Uzbekistan //International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering. – 2019. – T. 9. – №. 1. – C. 4943-4952.
11. Arustamyan, Y., Siddikova, Y., Sadullaeva, N., Solieva, M., & Khasanova, N. (2020). Assessment of Educational Process and its Organization. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24(S1), 573-578.
12. Nilufar S., Elvira A. GENDER SPECIFICITY OF PEDAGOGICAL DISCOURSE //INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCES WITH HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS. – 2023. – T. 3. – №. 08.05. – C. 187-190.
13. Gulnoza K., Sadullaeva N. LINGUISTIC FEATURES OF GLUTTONIC DISCOURSE.
14. Djafarova, Dildora, Yaxshiboyeva Nodira, and Abdullayeva Zulfiya. "Socio-Cultural Memory And Its Reflection In French Phraseology." Journal of Positive School Psychology (2022): 2883-2889.
15. Yaxshiboyeva, Nodira. "Reconstruction of coloristic expressions in erkin azam's" noise" and" pakana's love"." Конференции. 2021.
16. Ilhomovna, Djafarova Dildora, and Bobokalonov Odilshoh Ostonovich. "Interaction of Language Games in the Articulation of “Historical Memory” Within French and Uzbek Phraseology." American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769) 2.1 (2024): 348-354.
17. Ilhomovna, Djafarova Dildora, Bobokalonov Odilshoh Ostonovich, and J. A. Yakubov. "Archaic Phraseological Units as Windows into “Historical Memory” in French and Uzbek Linguistic Traditions." American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157) 2.1 (2024): 163-169.
18. Ilhomovna, Djafarova Dildora, Bobokalonov Odilshoh Ostonovich, and Yaxshiboyeva Nodira Ergashovna. "Contemporary Usage of Archaic Phraseological Units Expressing “Historical Memory” In Uzbek and French Languages." American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769) 2.2 (2024): 371-377.
19. Ilhomovna, Djafarova Dildora. "Phraseological Units Expressing" Memory"/" Mémoire" in Linguistics and their Analysis through Texts." Best Journal of Innovation in Science, Research and Development 2.11 (2023): 490-492.
20. Яхшибоева, Нодира. "Таржима жараёнида маданиятлараро мулоқотнинг социолингвистик хусусиятлари." Академические исследования в современной науке 2.17 (2023): 165-169.
21. Иногамова, Ф. М., and Н. Э. Яхшибоева. "Фразеологик маънонинг конвенциаллиги." Academic research in educational sciences 3.5 (2022): 1176-1182.

22. Яхшибоева, Н. (2023). Туристический дискурс как один из особых видов институционального дискурса. International Bulletin of Applied Science and Technology, 3(6), 879-884.
23. Яхшибоева, Нодира. "The role of tourism terminology in french." O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023,[1/4] (2023).